UO‘K 378.011.3-051:811.111

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING TARKIBIY-FUNKSIONAL ASOSLARI

Tuxtayeva Nilufar Achilovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili nazariy aspektlari №1 kafedrasi
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent, O‘zbekiston
nilufartuxtayeva0609@gmail.com

Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi integrativ yondashuv asosida tadqiq etilgan. Ilmiy-nazariy tahlil natijasida kasbiy-metodik tayyorgarlikning lingvometodik, metodik-operatsion, kommunikativ-metodik va refleksiv-baholash komponentlari ajratilib, ularning funksional mazmuni aniqlashtirilgan. Mazkur komponentlarning til, metodik bilim, kasbiy kommunikatsiya, metodik qaror qabul qilish va refleksiv faoliyatni o‘zaro bog‘lashdagi funksiyalari asoslangan. CLIL texnologiyasining mazmun, kommunikatsiya, kognitiv faoliyat va madaniy kontekstni integratsiyalash imkoniyatlari kasbiy-metodik tayyorgarlik komponentlarini funksional birlashtiruvchi metodik asos sifatida yoritilgan. Natijada komponentlararo aloqadorlikning bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘lish xususiyatlari tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, kasbiy-metodik tayyorgarlik, CLIL texnologiyasi, lingvometodik komponent, metodik-operatsion komponent, kommunikativ-metodik komponent, refleksiv-baholash komponenti, integrativ ta’lim.*

STRUCTURAL AND FUNCTIONAL FOUNDATIONS FOR ENHANCING PRE-SERVICE ENGLISH TEACHERS’ PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL PREPAREDNESS

This article examines the enhancement of pre-service English teachers’ professional and methodological preparedness through an integrative approach. Based on theoretical analysis, four components of professional and methodological preparedness - linguomethodological, methodological-operational, communicative-methodological, and reflective-assessment - are identified, and their functional content is clarified. The functions of these components in integrating language, methodological knowledge, professional communication, methodological decision-making, and reflective practice are substantiated. The potential of CLIL technology to integrate content, communication, cognition, and cultural context is considered a methodological basis for the functional integration of professional and methodological preparedness components. As a result, the interrelationships among these components and their manifestations in pre-service teachers’ professional activity are systematized.

Keywords: *pre-service English teacher, professional and methodological preparedness, CLIL technology, linguomethodological component, methodological-operational component, communicative-methodological component, reflective-assessment component, integrated learning.*

СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

В статье исследуется проблема совершенствования профессионально-методической подготовки будущих учителей английского языка на основе интегративного подхода. В результате теоретического анализа выделены лингвометодический, методико-операциональный, коммуникативно-методический и рефлексивно-оценочный компоненты профессионально-методической подготовки, и уточнено их функциональное содержание. Обоснованы функции данных компонентов в интеграции языковой подготовки, методических знаний, профессиональной коммуникации, принятия методических решений и рефлексивной деятельности. Возможности технологии CLIL по интеграции содержания, коммуникации, когнитивной деятельности и культурного контекста рассматриваются как методическая основа функционального объединения компонентов профессионально-методической подготовки. В результате систематизированы

взаимосвязи между выделенными компонентами и особенности их проявления в профессиональной деятельности будущего учителя.

Ключевые слова: *будущий учитель английского языка, профессионально-методическая подготовка, технология CLIL, лингвометодический компонент, методико-операциональный компонент, коммуникативно-методический компонент, рефлексивно-оценочный компонент, интегративное обучение.*

Kirish. Chet tillarni o‘qitish sohasidagi zamonaviy o‘zgarishlar ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni sezilarli darajada kengaytirmoqda. Tilni yuqori darajada egallash pedagogning kasbiy tayyorgarligi uchun zarur shart bo‘lsa-da, u samarali pedagogik faoliyatni o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi. O‘qituvchi til materialining didaktik imkoniyatlarini aniqlashi, uni ta’lim maqsadiga muvofiq tanlashi va moslashtirishi, o‘quv topshiriqlarini loyihalashi, ta’lim oluvchilarning ehtiyojlariga mos metodik qaror qabul qilishi hamda o‘z pedagogik faoliyati natijalarini muntazam tahlil qilib borishi talab etiladi. Shuning uchun oliy ta’limda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisini tayyorlashning ustuvor vazifalaridan biri til kompetensiyasini rivojlantirish bilan chegaralanmay, undan kasbiy-metodik faoliyatda ongli va maqsadli foydalanish mexanizmlarini shakllantirishdan iborat.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishida nazariy bilim va amaliy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ahamiyatga ega. Metodik tushuncha talaba tomonidan o‘zlashtirilgani hali uning muayyan pedagogik vaziyatda to‘g‘ri metodik yechim tanlay olishini anglatmaydi. Xuddi shuningdek, ingliz tilini yuqori darajada egallash ham til hodisasini o‘quvchiga qanday tushuntirish, qanday topshiriq orqali mustahkamlash yoki qanday baholash lozimligini avtomatik ravishda belgilab bermaydi. Demak, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining tayyorgarligida **“***bilish – tahlil qilish – metodik qaror qabul qilish – loyihalash – pedagogik muloqotda qo‘llash – natijani baholash”* o‘rtasidagi funksional bog‘lanishni shakllantirish zarurati yuzaga keladi.

Muallifning avvalgi tadqiqotida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim omillaridan biri sifatida o‘rganilgan [1]. Mazkur yo‘nalishni davom ettirish jarayonida kasbiy faoliyat uchun lingvistik tayyorgarlikning o‘zi yetarli emasligi, til kompetensiyasi metodik bilim, pedagogik harakat, kasbiy kommunikatsiya va refleksiv faoliyat bilan funksional aloqaga kirishgandagina kasbiy ahamiyat kasb etishi haqidagi ilmiy masala yuzaga chiqadi. Bu esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini alohida komponentlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit tizim sifatida tadqiq etishni talab qiladi.

Mazkur muammo CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi kontekstida yangi metodik mazmun kasb etadi. CLILning asosiy xususiyati mazmun va tilni bir vaqtning o‘zida o‘zlashtirishga yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq bo‘lsa, uning 4C konsepsiyasi Content, Communication, Cognition va Culture elementlarining o‘zaro integratsiyasini nazarda tutadi [2]. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda mazkur prinsipdan foydalanish CLILni faqat ingliz tilida muayyan predmet mazmunini o‘qitish vositasi sifatida emas, balki *kasbiy mazmun, chet tili va metodik faoliyatni yagona o‘quv vazifasida birlashtirish imkonini beruvchi integrativ mexanizm* sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi tarkibini aniqlashtirish, uning asosiy komponentlarining funksional mazmuni va o‘zaro aloqadorligini ochib berish hamda ularni CLIL texnologiyasi asosida integratsiyalashning metodik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot obyekti. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirish jarayoni tadqiqot obyekti sifatida belgilandi. Mazkur jarayonda kasbiy-metodik tayyorgarlikning lingvometodik, metodik-operatsion, kommunikativ-metodik hamda refleksiv-baholash komponentlari o‘rtasidagi funksional aloqadorlikka, shuningdek, ularni CLIL texnologiyasining integrativ imkoniyatlari asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Chet tili o‘qituvchisini kasbiy tayyorlash muammosi metodika fanida turli nazariy pozitsiyalardan o‘rganilgan. J.J. Jalolov chet til o‘qitish metodikasini o‘qitish maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarini o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etuvchi ilmiy soha sifatida asoslaydi [3]. T.Q. Sattarovning tadqiqotida esa bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy-uslubiy malakalarini amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘liq holda shakllantirish muammosi maxsus tadqiq etilgan [4]. Mazkur qarashlar bo‘lajak o‘qituvchining metodik tayyorgarligida nazariy bilimning kasbiy faoliyatga transformatsiyasi muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Xorijiy metodik tadqiqotlarda ham teacher education nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilangina chegaralanmaydi. Richards va Farrell o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida refleksiya, hamkorlik, kuzatish va amaliy faoliyatni professional o‘sishning o‘zaro bog‘liq mexanizmlari sifatida ko‘rsatadilar [5]. Bu nuqtayi

nazardan kasbiy-metodik tayyorgarlik statik bilimlar majmui emas, balki pedagogik vaziyatni tahlil qilish, metodik tanlovni asoslash va uning natijasiga qayta murojaat qilish orqali doimiy ravishda rivojlanadigan dinamik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi.

CLIL bo‘yicha fundamental tadqiqotlarda esa mazmun va til integratsiyasi ta’lim jarayonining asosiy tamoyili sifatida talqin qilinadi. Coyle, Hood va Marsh tomonidan taklif etilgan 4C konsepsiyasi mazmunni kommunikatsiya va tafakkur faoliyatidan ajratmasdan o‘zlashtirishni nazarda tutadi [2]. Mehisto, Marsh va Frigols CLIL muhitini tashkil etishda o‘quv faoliyati, til yordami, kognitiv murakkablik va faol ishtirokning o‘zaro mutanosibligini alohida ta’kidlaydilar [6]. Cenoz, Genesee va Gorter esa CLILni tahlil qilishda uning turli ta’lim kontekstlarida bir xil ko‘rinishda namoyon bo‘lmasligini hisobga olish zarurligini qayd etadilar [7].

Shu jihatdan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligiga CLILni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishdan ko‘ra, uning integrativ prinsiplarini teacher education vazifalariga moslashtirish maqsadga muvofiq. Ya’ni talaba bir vaqtning o‘zida ingliz tilidan foydalanishi, metodik mazmun ustida ishlashi, pedagogik muammoni hal qilishi va o‘z metodik qarorini tahlil qilishi kerak. Bunday faoliyatda til *o‘rganish obyekti, kasbiy mazmunni egallash vositasi va metodik faoliyatni amalga oshirish vositasi* sifatida uch tomonlama funksiyani bajaradi.

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish, komponentli va funksional tahlil usullaridan foydalanildi. Kasbiy-metodik tayyorgarlikning tarkibiy elementlarini aniqlashda kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va integrativ yondashuvlar o‘zaro bog‘liq metodologik pozitsiyalar sifatida qabul qilindi. CLILning 4C konsepsiyasi esa ajratilgan komponentlarning o‘quv faoliyatidagi funksional aloqalarini izohlash uchun metodik asos vazifasini bajardi.

Natijalar va muhokama. Kasbiy-metodik tayyorgarlikning integrativ mohiyati. Kasbiy-metodik tayyorgarlik tushunchasini aniqlashda “kasbiy tayyorgarlik”, “metodik kompetensiya” va “pedagogik faoliyatga tayyorlik” tushunchalarining mazmunan yaqinligi bilan bir qatorda, ularning funksional chegaralarini hisobga olish talab etiladi. Bizning yondashuvimizda kasbiy-metodik tayyorgarlik bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining egallagan bilimlari hajmi bilangina emas, balki ushbu bilimlarni pedagogik vaziyatda *metodik harakatga aylantirish qobiliyati* bilan tavsiflanadi.

Shu asosda *bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligi* deganda lingvistik va metodik bilimlarni pedagogik vaziyat talablari bilan integratsiyalash, asoslangan metodik qaror qabul qilish, o‘quv faoliyatini loyihalash va amalga oshirish, kasbiy muloqotni ingliz tilida olib borish hamda pedagogik natijalarni refleksiv-mezonli baholashga tayyorligini ifodalovchi dinamik integrativ kasbiy sifat tushuniladi.

Mazkur ta’rifda uchta jihat prinsipial ahamiyatga ega. Birinchidan, *integrativlik* kasbiy-metodik tayyorgarlikning ichki tuzilishini belgilaydi. Ikkinchidan, *faoliyatlilik* bilimning metodik harakatga aylanishini nazarda tutadi. Uchinchidan, *refleksivlik* metodik harakatning natijasini tahlil qilish va keyingi faoliyatni korreksiya qilish imkoniyatini yaratadi.

Olib borilgan tarkibiy-funksional tahlil kasbiy-metodik tayyorgarlikni to‘rtta o‘zaro aloqador komponent orqali ifodalash imkonini berdi. Komponentlar bir-biridan izolyatsiyalangan kompetensiyalar sifatida emas, balki yagona metodik faoliyatning o‘zaro bog‘liq funksional bo‘g‘inlari sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, talabaga ma’lum grammatik hodisani o‘qitishga mo‘ljallangan topshiriq yaratish vazifasi berilganda u dastlab til hodisasining o‘quv qiymatini aniqlaydi *(lingvometodik komponent)*, so‘ng o‘qitish maqsadi va topshiriq turini tanlaydi *(metodik-operatsion komponent)*, topshiriqning yo‘riqnomasini ingliz tilida shakllantirib, uni pedagogik muloqotda amalga oshiradi *(kommunikativ-metodik komponent)* va yakunda topshiriqning samaradorligini belgilangan mezonlar asosida tahlil qiladi *(refleksiv-baholash komponenti).*

Demak, birgina kasbiy vazifa to‘rt komponentning ketma-ket emas, ko‘pincha bir vaqtda faollashishini talab qiladi. Aynan shu holat kasbiy-metodik tayyorgarlikni komponentlarning mexanik yig‘indisi sifatida emas, *funksional integratsiyalashgan tizim* sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Lingvometodik komponent. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining til kompetensiyasi kasbiy faoliyat kontekstida yangi funksiyaga ega bo‘ladi. Talaba uchun grammatik, leksik yoki fonetik hodisani bilishning o‘zi yetarli emas; u mazkur hodisaning o‘quv qiyinchiliklarini oldindan ko‘ra bilishi, uni o‘rganuvchining tayyorgarlik darajasiga moslashtirishi, tegishli kontekst va topshiriqni tanlashi kerak. Shu sababli lingvometodik komponent til bilimining metodik interpretatsiyasini ifodalaydi.

Bu komponent doirasida “tilni bilaman” pozitsiyasidan *“ushbu til hodisasini nima uchun, kimga, qanday kontekstda va qanday faoliyat orqali o‘rgataman?”* pozitsiyasiga o‘tish sodir bo‘ladi. Bunday transformatsiya bo‘lajak o‘qituvchining predmet bilimini pedagogik maqsad bilan bog‘lash imkonini beradi.

Muallifning lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha avvalgi tadqiqoti [1] til tayyorgarligining bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyati bilan bog‘lanishini asoslashga qaratilgan edi.

Mazkur tadqiqot doirasida bu bog‘lanish yanada rivojlantirilib, lingvistik bilimning metodik qarorga transformatsiyasi kasbiy-metodik tayyorgarlikning mustaqil funksional bo‘g‘ini sifatida qaralmoqda.

Metodik-operatsion komponent. Kasbiy-metodik tayyorgarlikning ikkinchi muhim jihati talabaning metodik nazariyani konkret pedagogik harakatga aylantira olishidir. O‘qitish metodlari va tamoyillarining nomlarini bilish bilan ulardan real vaziyatda asosli foydalanish o‘rtasida sezilarli farq mavjud. Shu sababli metodik-operatsion komponentning markazida *metodik qaror qabul qilish* turadi.

Metodik qaror tayyor algoritmni takrorlash emas. Masalan, kommunikativ topshiriq yaratishda bo‘lajak o‘qituvchi o‘quv maqsadi, talabaning til darajasi, mazmun, vaqt, interaction pattern, kutiladigan natija va baholash usulini o‘zaro muvofiqlashtirishi kerak. Demak, metodik-operatsion faoliyat reproduktiv bilimdan ko‘ra tahlil, tanlov, loyihalash va asoslashni talab etadi.

CLIL ushbu jarayonni yanada murakkablashtiradi, chunki metodik qaror faqat til maqsadiga emas, balki mazmun va kognitiv vazifaga ham muvofiqlashtiriladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi “qaysi metoddan foydalanaman?” savolidan *“mazmuniy, kommunikativ va kognitiv maqsadlarga erishish uchun qanday o‘quv faoliyatini loyihalashim kerak?”* degan yuqori darajadagi metodik savolga o‘tadi.

Kommunikativ-metodik komponent. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy kommunikatsiyasi umumiy kommunikativ kompetensiyadan o‘zining metodik maqsadga yo‘naltirilganligi bilan farqlanadi. O‘qituvchi ingliz tilidan shunchaki muloqot qilish uchun emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etish, mazmunni tushuntirish, scaffolding yaratish, savol berish, muhokamani boshqarish, o‘quvchi javobiga munosabat bildirish va feedback berish uchun foydalanadi.

Shu bois kommunikativ-metodik komponentning mazmunida *pedagogik nutqning funksionalligi* markaziy o‘rin tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchi til vositalarini pedagogik maqsadga muvofiq tanlashi va o‘z kommunikativ xatti-harakatini o‘quv vaziyatiga moslashtirishi zarur.

CLIL sharoitida bu komponent alohida ahamiyatga ega. Communication 4C modelining mustaqil tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga, Content va Cognitionni amalga oshirish vositasi hamdir [2]. Demak, kasbiy tayyorgarlik jarayonida ingliz tili alohida o‘quv predmeti sifatidagi funksiyasidan chiqib, metodik bilimni muhokama qilish, pedagogik qarorni himoya qilish va kasbiy vazifani bajarish tiliga aylanadi.

Refleksiv-baholash komponenti. Metodik faoliyat faqat topshiriq yoki darsning bajarilishi bilan tugamaydi. Uning kasbiy rivojlantiruvchi qiymati bo‘lajak o‘qituvchining amalga oshirilgan faoliyatga qay darajada qayta murojaat qilishi, natijani tahlil qilishi va keyingi metodik qarorini shu tahlil asosida o‘zgartira olishiga bog‘liq.

Refleksiv-baholash komponenti shu sababli oddiy “o‘z fikrini bildirish” bilan cheklanmaydi. U oldindan belgilangan mezon asosida metodik faoliyatni baholash, natija va maqsad o‘rtasidagi tafovutni aniqlash, feedbackni interpretatsiya qilish hamda keyingi faoliyatga korreksiya kiritishni qamrab oladi. Richards va Farrell tomonidan o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida refleksiv faoliyatga berilgan ahamiyat ham ushbu komponentning zarurligini ko‘rsatadi [5].

Bunday yondashuvda xato salbiy natija sifatida emas, balki keyingi metodik qarorni takomillashtirish uchun *diagnostik axborot* sifatida ishlatiladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchida o‘z pedagogik faoliyatiga analitik munosabatni shakllantiradi.

Clil asosida komponentlarning funksional integratsiyasi. Ajratilgan to‘rtta komponentning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash masalasi kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirishning asosiy metodik shartlaridan biridir. An’anaviy tashkil etilgan o‘quv jarayonida til amaliyoti, metodik nazariya va pedagogik faoliyat bir-biridan nisbatan ajratilgan holatda o‘zlashtirilishi mumkin. Integrativ tashkil etilgan ta’limda esa bir o‘quv vazifasi mazkur uch yo‘nalishni birlashtirishi talab etiladi.

CLILning 4C konsepsiyasi bunga metodik imkoniyat yaratadi. Bunda

- ✓ **Content** – talaba egallashi lozim bo‘lgan metodik mazmunni;
- ✓ **Communication** – ushbu mazmunni ingliz tilida o‘zlashtirish va kasbiy muloqotda qo‘llashni;
- ✓ **Cognition** – tahlil qilish, taqqoslash, asoslash, loyihalash va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlash operatsiyalarini;
- ✓ **Culture** esa turli ta’lim kontekstlari, o‘quvchi ehtiyojlari va pedagogik qarashlarga ochiqlikni ta’minlaydi.

Biroq 4C elementlari bilan kasbiy-metodik komponentlar o‘rtasida qat’iy “birga-bir” munosabat o‘rnatish metodik jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Masalan, Cognition faqat metodik-operatsion komponentga, Communication esa faqat kommunikativ-metodik komponentga xizmat qilmaydi. Aksincha, 4Cning har bir elementi kasbiy-metodik faoliyatning turli bosqichlariga kirib boradi. Shu sababli CLIL mazkur tizimda alohida komponent emas, balki *to‘rt komponentni faoliyat darajasida bog‘lovchi integrativ asos* vazifasini bajaradi (1-jadval).

1-jadval. CLIL texnologiyasi asosida kasbiy-metodik tayyorgarlik komponentlarining faoliyat bosqichlari bilan funksional integratsiyasi

Faoliyat bosqichi	Talabaning asosiy harakati	Yetakchi komponent	CLIL bilan funksional aloqa
Kasbiy-metodik mazmunni anglash	Metodik tushuncha va muammoning mohiyatini aniqlash	Lingvometodik	Content + Communication
Lingvometodik tahlil	Til materiali va o‘qitish maqsadi o‘rtasidagi aloqani aniqlash	Lingvometodik	Content + Cognition
Metodik qaror	Pedagogik vaziyatga mos yechimni tanlash va asoslash	Metodik-operatsion	Cognition + Content
Loyihalash	Material, task va pedagogik faoliyatni ishlab chiqish	Metodik-operatsion	Content + Cognition + Communication
Kasbiy-kommunikativ qo‘llash	Microteaching, muhokama, taqdimot yoki pedagogik vaziyatda amalga oshirish	Kommunikativ-metodik	Communication + Culture
Refleksiya va korreksiya	Natijani mezon asosida baholash va takomillashtirish	Refleksiv-baholash	Cognition + Communication + Culture

Taklif etilayotgan mexanizmda talabaning faoliyati tayyor metodik axborotni o‘zlashtirishdan boshlanib, uning amaliy qo‘llanishi bilan yakunlanmaydi. Jarayon *anglash → tahlil → metodik qaror → loyihalash → kasbiy-kommunikativ qo‘llash → refleksiya va korreksiya* sikli bo‘yicha rivojlanadi. Refleksiya natijasida olingan axborot keyingi kasbiy-metodik vazifani bajarishga qayta yo‘naltirilgani sababli ushbu jarayon chiziqli emas, balki rivojlanuvchi siklik xususiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuvni, xususan, “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” fani doirasida amalga oshirish imkoniyati mavjud. Masalan, “Teaching vocabulary” mavzusini o‘zlashtirishda talabaga metodlar haqida tayyor ma’lumotni reproduktiv tarzda qayta bayon qilish o‘rniga muayyan yosh va til darajasidagi o‘quvchilar uchun leksik materialni tanlash, uning o‘quv qiyinchiliklarini aniqlash, tegishli task yaratish, o‘z metodik tanlovini ingliz tilida asoslash, microteaching orqali sinab ko‘rish va natijani mezonlar asosida baholash vazifasi berilishi mumkin. Bitta faoliyat ichida til, metodik mazmun, kommunikatsiya, pedagogik harakat va refleksiya birlashadi.

Shu nuqtai nazardan CLILning bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashdagi qiymati faqat ikki xil mazmunni birlashtirish bilan belgilanmaydi. Uning muhim metodik imkoniyati talabani kasbiy bilimni o‘zlashtiruvchi subyektdan metodik qaror ishlab chiquvchi va uni asoslay oluvchi subyektga aylantirish bilan bog‘liq.

Bu esa kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirishda uchta prinsipial o‘zgarishni yuzaga keltiradi: metodik bilim reproduktiv o‘zlashtirish obyektidan pedagogik muammoni hal qilish resursiga; ingliz tili o‘quv predmetidan kasbiy fikrlash va pedagogik faoliyat vositasiga; baholash esa yakuniy natijani qayd etish vositasidan metodik faoliyatni takomillashtiruvchi refleksiv mexanizmga aylanadi.

Xulosa. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini tahlil qilish uning alohida bilim va ko‘nikmalar yig‘indisidan ko‘ra murakkabroq integrativ tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Kasbiy faoliyatda lingvistik bilim, metodik qaror, pedagogik harakat, kasbiy kommunikatsiya va refleksiya bir-biridan ajralgan holda emas, o‘zaro bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayoni ham mazkur aloqadorlikni aks ettirishi zarur.

Tadqiqot doirasida kasbiy-metodik tayyorgarlikning *lingvometodik, metodik-operatsion, kommunikativ-metodik va refleksiv-baholash komponentlaridan* iborat tarkibiy tuzilishi aniqlashtirildi. Lingvometodik komponent til bilimining metodik interpretatsiyasini; metodik-operatsion komponent metodik bilimning asoslangan pedagogik harakatga aylanishini; kommunikativ-metodik komponent kasbiy-metodik vazifalarning ingliz tilidagi pedagogik muloqot orqali amalga oshirilishini; refleksiv-baholash komponenti esa faoliyat natijalarini mezonli tahlil qilish va korreksiya qilishni ta’minlaydi.

CLIL texnologiyasining 4C konsepsiyasi ushbu komponentlarni alohida rivojlantiruvchi vosita sifatida emas, ularning o‘zaro funksional integratsiyasini ta’minlovchi metodik asos sifatida talqin qilindi. Bunda mazmun, kommunikatsiya, kognitiv faoliyat va madaniy kontekst kasbiy-metodik vazifalarning ichki tuzilishiga singdiriladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchining metodik bilimni egallashidan uni tahlil qilish, metodik qaror qabul qilish, loyihalash, pedagogik vaziyatda qo‘llash hamda refleksiv baholashgacha bo‘lgan yaxlit faoliyat siklini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shunday qilib, CLIL asosidagi integrativ tashkil etish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda til va metodik mazmunni oddiy birlashtirishdan ko‘ra kengroq pedagogik vazifani bajaradi. U *til – metodik bilim – pedagogik harakat – kasbiy kommunikatsiya – refleksiya* o‘rtasidagi funksional uzviylikni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Mazkur aloqadorlikni o‘quv faoliyati, topshiriqlar tizimi va baholash mexanizmlarida izchil amalga oshirish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisini real kasbiy faoliyatga tayyorlashning istiqbolli metodik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p.
2. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashr. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 429 b.
3. Sattarov T.Q. Mutaxassislik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda bo‘lajak chet tili muallimining kasbiy-uslubiy malakalarini shakllantirish (ingliz tili materialida): ped. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2000.
4. Richards J.C., Farrell T.S.C. Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
5. Mehisto P., Marsh D., Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – 238 p.
6. Cenoz J., Genesee F., Gorter D. Critical Analysis of CLIL: Taking Stock and Looking Forward // Applied Linguistics. – 2014. – Vol. 35, No. 3. – P. 243–262.
7. Dalton-Puffer C. Discourse in Content and Language Integrated Learning (CLIL) Classrooms. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2007.
8. Tuxtayeva N.A. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashda CLIL texnologiyasining pedagogik salohiyati. – 2026.